

## O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI'DA DARAJALANUVCHI FE'LLARNING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI

*M.B.Kasimova*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** maqolada milliy tilning yashashi uchun lug'atlarning ahamiyati, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da sinonimik qator va graduonimik qatorlarning, xususan, fe'llarning berilishi va bugungi kun lug'atlarini yaratishda fe'llarning darajalanish qatorlarini berish haqidagi ilmiy manbalarga asoslangan tavsiyalari aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** "O'zbek tilining izohli lug'ati", sinonim so'zlar, graduonimik qator, fe'llarni lug'atlarda berish masalasi, sinonim va graduonimlar o'rtasidagi ma'no farqlanishi,

"O'zbek tilining izohli lug'ati"ning birinchi bor nashr qilinishi haqida fikr yuritsak, 1981-yilda Moskvada nashr etilganligi barchamizga ma'lum. "Boy leksikografik an'analarning davomi sifatida o'tgan asrning 50–80-yillari mobaynida o'zbek tilshunosligida erishilgan va o'zbek leksikografiyasini tilshunoslikning tez rivojlanib borayotgan mustaqil sohasiga aylantirgan ulkan muvaffaqiyati tufayli yuzaga kelgan"<sup>2</sup>. Ushbu lug'at o'z davri uchun salmoqli ahamiyat kasb etganligini e'tirof etmoq lozim. Chunki, o'zbek tili leksik sathining asosini tashkil qiluvchi so'zlar izohini qamrab olgan bu lug'at birinchi navbatda shu millat nutqida so'zlayotgan so'zlar izohini qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir. Ko'pgina ma'rifiy-ma'naviy so'zlarning izohli lug'atga kirmay qolganligi ayni haqiqat, ammo bu shu davr siyosatining til rivojlanishiga o'tkazgan ta'siri bilan bog'liqdir. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng 1981-yilda nashr qilingan ikki tomli O'TIL bugungi kun talablariga to'laligicha javob berolmay qoldi. Sababi, ushbu davrda vatanimiz dunyo davlatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirishgandan so'ng leksikamizga juda ko'plab turli sohalarga oid so'zlar o'zlashdi. Qolaversa, amaldagi izohli lug'atimizda xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar va an'alarimizni aks ettiruvchi so'zlar kiritilmagan edi. Ana shu omillar sabab yangi izohli lug'at tuzish zarurati paydo bo'ldi. 2006-yilda nashr qilingan besh tomli izohli lug'at ana shu zaruratni to'ldirish uchun yaratildi. Besh tomli izohli lug'at tuzuvchilari lug'atning kirish qismida darajalanish qatorlarining izohlanishini sinonimiya hodisasi bilan qo'shib tushuntirishgan. Zero, sinonimik qator va graduonimik qatorlar shaklan va mazmunan o'xshash hodisalardir. Ko'p ma'noli so'z biror ma'nosi yoki bir necha ma'nosi orqali boshqa so'zga sinonim bo'lsa, shu ma'nosi bilan sinonimik qatordagi asosiy so'zga havola etiladi.

Sinonimlar bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadi. Faqat havola etishning o'zi bilan ana shu farqlarni to'la qayd etish mumkin bo'lavermaydi. Demak, so'z ma'nosi izohining to'g'ri va to'liqligiga putur yetkazilmaydigan hollardagina izohning bu usulini (havola etish yo'lini) qo'llash mumkin. Faktlarning ko'rsatishicha, ikki holatda shunday yo'l tutish mumkin:

<sup>1</sup> fffd.(PhD) – "Yosh chegarachilar"HAL ona tili va adbiyot fani o'qituvchisi

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: Рус тили, 1981. – Б. 5



Birinchidan, o‘zaro sinonim so‘zning bir-biridan farqi yo‘q, deyarli yo‘q bo‘lgan hollarda. Bunday so‘zlarning biri qo‘llanishi jihatidan asosiy ekanligi sezilib turadi, lekin biron-bir uslubiy belgi (keng ma’noda) qo‘yilishi talab etilmaydi ham. Ana shu so‘zga izoh berilib, sinonimi unga havola etiladi. Masalan: *ilg‘or*, *pehqadam* so‘zlaridan *ilg‘or* so‘ziga izoh berilib, *pehqadam* so‘zi *ayn.* belgisi bilan unga havola etiladi. Bu bilan *pehqadam* so‘zi ham *ilg‘or* so‘zi ma’nosiga berilgan darajadagi izoh bilan ta’minlanadi:

**ILG‘OR** [izoh]... **PESHQADAM** *ayn.* **ilg‘or**...

Ikkinchidan, sinonim so‘zlarning asosiysi izohlanib, boshqasi (boshqalari), o‘ziga xos xususiyatni bildiruvchi xarakteristika bilan (xarakteristikani bildiruvchi belgini qo‘yib), unga havola etiladi. Misol:

**SHOTI** *shv.* Narvon...

**ORAZ** *poet.* Yuz...

**ALALXUSUS** *esk. kt.* Ayniqsa, xususan...

Demak, bunda, birinchidan, asosiy so‘zning ma’nosiga berilgan izoh havola etilgan so‘zning ma’nosiga tegishli ekani, ikkinchidan, havola etilayotgan so‘zning o‘ziga xos xususiyati qayd etilishi lozim, chunki lug‘atlarda ana shu algoritm asosida ish tutilsa albatta, izohlanayotgan so‘z izohining mukammalligi ta’minlangan bo‘ladi.

Izohli lug‘at 5 ta jildining barchasida graduonimik birliklar sinonimik qator asosida berilgan hamda izohlanganligini ko‘rish mumkin. Quyida biz

1981-yilda nashr qilingan O‘TIL va 2006-yilda nashr qilingan O‘TILlarda darajalanish qatoriga ega bo‘lgan fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zlar izohini ko‘rib chiqamiz: **PAYQAMOQ 1** Sezmoq, his qilmoq, bilmoq. *U sezgir odam, nima bo‘lsa darrov payqaydi. Yefim Danilovich uning ko‘zlaridan qaytarib bo‘lmaydigan bir istakni payqab turardi. A.Muxtor, Opa singillar. Otabek bunday so‘roqlarning bekorga emasligini payqab, buning tagida qanday bo‘lsa ham bir gap borligiga ishondi. A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. Yigit hech narsa sezmedi. Ko‘zlarini ochgan vaqtda tuproqqa ko‘milib yotganini payqadi.* Oybek, Quyosh qoraymas.

2.Ma’nosini anglamoq, uqmoq, tushunmoq. *Uning nima deganini payqay olmadim. – [Sultonali:] Shoiringizning pichinglarini payqaysizmi? A.Qodiriy, Mehrobdan chayon<sup>3</sup>*

**PAYQAMOQ 1.** Sezmoq, his qilmoq, bilmoq. *Yigit hech nima sezmedi. Ko‘zlarini ochgan vaqtda, tuproqqa ko‘milib yotganini payqadi. Oybek, Quyosh qoraymas. Sho‘rxok suv bilchillab yotgan to‘qay ichidan yugurib borarkanman, chap oyog‘im yerga muzday tegayotganini payqadim. O‘. Hoshimov, Ikki eshik orasi.*

1. Ma’nosini anglamoq, uqmoq, tushunmoq; sezmoq. *Mudir uning ishga urinmay tik turganidan, nimadir demoqchi bo‘layotganini payqab, sekin so‘radi. “Saodat”. Umidning rasmiyat uchun gapirgan gaplari unga yoqmadi, uning o‘zgarib qolganini, yuragida qandaydir gumon-u shubhalar borligini payqadi. Mirmuhsin, Umid.*

*Temur Malik munshiyning maqsadini-yu yuragidagi alamini payqadi. Mirmuhsin, Temur Malik.<sup>4</sup>*

“O‘zbek tili izohli lug‘ati”ning ikki nashrida ham shuningdek, “O‘zbek tilining so‘zlar darajalanish o‘quv lug‘ati”da ham *payqamoq* dominantali darajalanish qatori turli xil ekanligini ko‘rish mumkin. Chunonchi, o‘quv lug‘atida: *Payqamoq → sezmoq → fahmlamoq*

(belgini kuchli darajada ifodalashiga ko‘ra)<sup>5</sup> tarzida berilgan. Umuman olganda yuqoridagi uchta lug‘atda ham darajalanish qatorlarining berilishi va izohlanishida muammolar bor. Yaratilajak “O‘zbek

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: Рус тили, 1981. – Б. 568

<sup>4</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б.217.

<sup>5</sup> Bobojonov. Sh., Islomov. I.O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 23.



tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tili graduonimlarining izohli lug‘ati” professor J.Jumabayeva ta’kidlaganidek, quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

1. Alifbo tartibidagi har bitta so‘zdan keyin izohli lug‘atdagi kabi qaysi so‘z turkumiga kirishi ko‘rsatilib maxsus izoh beriladi, berilgan so‘z graduonimik qatordan qaysi o‘rinni egallashi yoziladi va **GR.** qisqartmasidan keyin graduonimik qator to‘liq beriladi. Bunda yana muhim bir jihatni unutmaslik kerak: agar ijobiylikning, hajmning, ko‘lamning kengayishiga yoki oshishiga ko‘ra qator berilsa, , “→” belgisi graduonimlar orasiga qo‘yiladi, kamayishiga ko‘ra, ijobiylikdan salbiylikka ko‘ra graduonimik qator berilsa, u holda “←” belgisi orqali graduonimik qatorlar berilishi lozim bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida:

**Keng.** Sifat. biror bir predmetning narsaning sig‘imi normal holatdan yuqori bo‘lishi, tarqalish ko‘lami ortganda ishlatiladi. Masalan: *keng uy, keng imkoniyat.* GR. *keng ← o‘rta ← tor yoki tor → o‘rta → keng*

So‘z turkumlari bo‘yicha bo‘limlarga ajratib berish, ya’ni bunda ot so‘z turkumiga oid so‘zlarning graduonimik qatorlari alohida fe‘l, sifat, olmosh, ravish so‘z turkumlariga oid so‘zlarning graduonimik qatorlari alohida beriladi. Bunda lug‘at 5 (besh) bo‘limdan iborat bo‘lib, ushbu bo‘limlarda *ijobiylikning oshishiga, salbiylikning oshishiga ko‘ra, hajmning ortishiga/kamayishiga, tezlikning oshishi/kamayishiga ko‘ra* sarlavhalar ostida alifbo ko‘rinishida so‘zlarning izohi, graduonimik qatori ketma-ketlikda berilishi lozim<sup>6</sup>. Tadqiqotchi S.Turdimurodov o‘zining “O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida evfemik ma’nolar talqini” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida “O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida evfemik xarakterdagi leksemalarni berishda bosh so‘zdan keyin *evf.* shartli qisqartmasi keltirilishi lozim<sup>7</sup>ligi haqida fikr bildirib o‘tadi. Darhaqiqat, “O‘zbek tilining izohli lug‘at”larida graduonimik leksemalarni berishdan so‘ng katta harflarda **GR.** shartli pometasini berish va darajalanish qatorini to‘liq bergan holda izohlarini mukammallashtirish lozim deb hisoblaymiz. Tadqiqotchi X.Yusupxo‘jayeva “Lug‘atlarda fe‘llarning berilishi masalasi lug‘atchilikda eng murakkab masalalardan sanaladi. Ularning ma’no xarakteristikasini ochib berish yanada qiyindir. Demak, fe‘l formalarini tadqiq etish semasiologiya, leksikologiya va leksikografiya fanlari uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi,”<sup>8</sup> degan xulosaga keladi. Xulosa qilishimiz mumkinki, fe‘llarni lug‘atlarda berish masalasi 30-40 yildan beri tilshunosligimizdagi aktual mavzulardan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Zamonaviy lug‘atlar haqida gap ketar ekan, tilshunos olim J.Jumabayevaning quyidagi fikrini ham qayd qilib o‘tish lozim bo‘ladi: “Bu kabi lug‘atlar bir vaqtning o‘zida ham sinonim ham antonimlarni o‘z ichiga olgan graduonimik qatorlar berilganligi sababli til o‘rgatuvchi va o‘rganuvchilarga juda qulaydir. Shu bilan birga tarjimonlarning so‘z tanlashida kontekstual ma’noni saqlab qolishida, aynan tarjima qilinayotgan til xususiyatidan kelib chiqib, mos so‘zni topishda muhim o‘rin tutadi.”<sup>9</sup> Yuqorida tilshunos olim tomonidan bildirilgan fikrlar yaratilishi lozim bo‘lgan “O‘zbek tili graduonimlarining izohli lug‘ati” haqida edi. Darhaqiqat, yaratiladigan har qanday lug‘at foydalanuvchi uchun qulay va lug‘at maqolasi to‘ldirilgan holda nashr qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Biz yaratiladigan “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da fe‘l leksemalarning izohlanishida darajalanish bilan bog‘liq tavsiflarni mukammallashtirishga oid quyidagi misollar asosidagi tahlil va tavsiyalarimizni

<sup>6</sup> Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 177.

<sup>7</sup> Турдимуродов С. Ўзбек тилининг изоҳли луғатларида эвфемик маънолар талқини. Филол. фан. фалс. докт. ... дисс. Термиз– Б 74

<sup>8</sup> Юсупхўжаева Х. Ўзбек тили изоҳли луғатида феълларнинг ишланилиши. Монография. Тошкент -“Фан” нашриёти-1988-104-Б

<sup>9</sup> Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 178



ham bayon qilmoqchimiz. 2006-yil nashr qilingan “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da “Baqirmoq” fe‘li quyidagicha izohlangan:

**BAQIRMOQ 1** Bor ovoz bilan qichqirmoq, shovqin solmoq. *Katta daryo hay-qirmas, aqlli kishi baqirmas* “Qanotli so‘zlar”. **mm** *Olaxo‘ja tovushining boricha baqiradi: -A!? Targ‘il ho‘kiz o‘lib qoldi? Nima? Nega o‘lar ekan?* P. Tursun, O‘qituvchi. *Bektemir ko‘kragiga sig‘magan hayajon va mehrni ifodalagandek, g‘ayrishuuriy ravishda baqirib yubordi.* Oybek, Quyosh qoraymas<sup>10</sup> tarzida berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Izohli lug‘atimizning yangi nashrida esa quyidagi holatda berilsa, bizningcha, maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

**BAQIRMOQ fe‘l.** Bor ovoz bilan qichqirmoq, shovqin solmoq. GR. *baqirmoq* → *o‘kirmoq* → *hayqirmoq* (ovoz miqdorining oz-ko‘pligiga ko‘ra). *Katta daryo hayqirmas, aqlli kishi baqirmas* “Qanotli so‘zlar”. **mm** *Olaxo‘ja tovushining boricha baqiradi: -A!? Targ‘il ho‘kiz o‘lib qoldi? Nima? Nega o‘lar ekan?* P. Tursun, O‘qituvchi. *Bektemir ko‘kragiga sig‘magan hayajon va mehrni ifodalagandek, g‘ayrishuuriy ravishda baqirib yubordi.* Oybek, Quyosh qoraymas.

Shuningdek, “O‘zbek tili izohli lug‘atining” 2006-yilgi nashrida Aljimoq fe‘lining quyidagicha izohlanishini ko‘rishimiz mumkin:

**ALJIMOQ 1** Bo‘lmag‘ur, bema‘ni gap qilmoq, maza-bemaza, tuturiqsiz gaplar gapirmoq; valdiramoq, aynimoq. *Mening ochiq ko‘ngillilik qilib aljiyotganim uchun kechir.* Shuhrat, Shinelli yillar. *-Bas, aljima, pardali gapir! – dedi xon.* Mirmuhsin, Cho‘ri.<sup>11</sup> Shaklida izohlangan bo‘lsa, yangi nashrdan chiqayotgan “Izohli lug‘ati”mizda esa quyidagi shaklda berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

**ALJIMOQ fe‘l.** Bo‘lmag‘ur, bema‘ni gap qilmoq, maza-bemaza, tuturiqsiz gaplar gapirmoq; valdiramoq, aynimoq. GR. *Aljimoq* → *aljiramoq* → *valdiramoq* → *sannamoq* (*ifoda belgisining kuchli ifodalanishiga ko‘ra*) *Mening ochiq ko‘ngillilik qilib aljiyotganim uchun kechir.* Shuhrat, Shinelli yillar. *-Bas, aljima, pardali gapir! – dedi xon.* Mirmuhsin, Cho‘ri.

Sinonimiya va graduonimiya leksik-semantik munosabatlar ichida bir-biriga juda o‘xshash hodisalar sifatida o‘rganiladi. Umuman olganda, Sinonim va graduonimlar o‘rtasidagi ma‘no farqlanishi juda nozik. Sinonimiya aynan bir belgi, harakat, holatning turlicha nomlanishi bo‘lsa, graduonimiyada belgi, harakat, holatni ifodalashda so‘z ma‘nosi oshib yoki kamayib darajalana boradi:

1. Sinonim graduonimlar: *irjaymoq-irshaymoq-tirjaymoq*
2. Sinonim bo‘lmagan graduonimlar: *Jilmaymoq-tabassum qilmoq-kulmoq-xandon otmoq*

Yuqoridagi tahlildan shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, darajalanuvchi so‘zlar sinonim bo‘lishi ham bo‘lmasligi ham mumkin ekan. (Sinonimlarning ham ichida darajalanadigan sinonimlar mavjud bo‘ladi).

Bizningcha, fe‘l so‘z turkumiga oid bo‘lgan darajalanuvchi so‘zlarning yangi nashr qilinishi rejalashtirilayotgan “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da yuqorida biz tavsiya qilgan holda berilsa, bu foydalanuvchilarga bir muncha qulayliklar keltiradi. Zero, 1981-yil va 2006-2008-yillarda nashr qilingan “O‘zbek tilining izohli lug‘at”larida fe‘l so‘z turkumiga va boshqa turkumlarga kiruvchi darajalanuvchi so‘zlar izohlanganda ularning aksar hollarda turkumiga ishora qilinmagan. Shuningdek, darajalanuvchi so‘z ekanligi hamda darajalanish belgisining kamayish yoki ko‘payish jihatidan belgilari inobatga olinmaganligi lug‘at foydalanuvchilariga noqulaylik tug‘dirar edi. Yangi nashrdagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da yuqoridagi takliflarimizdan foydalanilsa, bizningcha foydadan xoli bo‘lmas edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: Рус тили, 1981.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020.

<sup>10</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б.224.

<sup>11</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б.77.



3. Bobojonov. Sh., Islomov. I. O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
4. Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 177
5. Турдимуродов С. Ўзбек тилининг изоҳли луғатларида эвфемик маънолар талқини. Филол. фан. фалс. докт. ... дисс. Термиз
6. Юсупхўжаева Х. Ўзбек тили изоҳли луғатида феълларнинг ишланилиши. Монография. Тошкент -“Фан” нашриёти-1988.

